
Shuhrat ABDULAZIZOV
Toshkent moliya instituti

ESG STANDARTLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Anotatsiya. Iqtisodiyotning erkinlashuvi jarayoni, bugun global miqyosda EIB (ESG) atamasi tez-tez tilga olinmoqda. Turli yirik kompaniyalar o‘z faoliyatida EIB (ESG) tamoyillari joriy etilganini ma‘lum qilishmoqda, bu borada ko‘plab izlanishlar olib borilib, yangiliklar tatbiq etilmoqda. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘muriy o‘zgarishlarning hozirgi sharoitida investitsiyalarni jalb qilishda korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda loyihalarni ekologik, ijtimoiy va boshqaruv standartlari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etmoqda.

Kalit so‘zlar. Ekologiya, qayta tiklanuvchi energiya, EIB, investitsiya, EIB standartlari, EIB indikatorlari.

ESG STANDARDS AND THEIR SPECIFIC FEATURES

Abstract. The process of economic liberalization, the term ESG is often mentioned globally today. Various large companies are reporting that ESG principles have been introduced in their operations, and many researches and innovations are being implemented in this regard. In the current conditions of socio-economic and administrative changes in the country, enterprises are introducing the practice of financing projects based on environmental, social and management standards in order to increase the efficiency of their activities in attracting investments.

Key words. Ecology, renewable energy, ESG, investment, ESG standards, ESG indicators.

Kirish

Hozirgi kunda har bir davlat iqtisodiy taraqqiyotga erishishni ta‘minlash va jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. Xalqaro miqyosda o‘z faoliyatini yuqori shaffoflikni ta‘minlash uchun kompaniyalar EIB (ESG) tamoyillarini joriy etmoqdalar. O‘z faoliyatiga joriy qilgan kompaniyalar keng omma, manfaatdor tomonlar uchun ochiq, ishonarli va prognoz qilish mumkin kompaniya hisoblanadi. Bunday kompaniyalar bilan hamkorlik qilish investorlar uchun ham, mijozlar uchun ham qulay hisoblanadi. Chunki shaffof va ochiq faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyalar investorlar e‘tiboriga tezroq tushadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda investorlar investitsiya kiritishda korxonalarining atrof-muhitga, ijtimoiy ya‘ni uning insonlarga va aksiyadorlarga bo‘lgan munosabati

asosida moliylashtirishga ko‘proq e‘tibor qaratishmoqda. Bu narsa birinchidan sarmoyalarning yo‘qolish xavfini kamaytirsa, ikkinchidan, ularning bozorda egallagan o‘rniga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, EIB (ESG) samarali, mas‘uliyatli va ishonchli boshqaruv demakdir. Bugun moliya bozorida ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmagan boshqaruv ishonchli boshqaruv degan qarash shakllanmoqda. Shu boisdan kompaniyaning EIB (ESG) tamoyillariga qanchalik amal qilishiga oid ma‘lumotlar sarmoyadorlar tomonidan sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida kompaniyalarning ekologiyaga ta‘siri masalasi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki iqlim isishi, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari yoki boshqa tabiiy ofatlar jahon miqyosida insonlarning hayotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatib, hayot sifatini tushirayotgan bo‘lsa, lokal miqyosda atrof-muhit, xususan, tuproq, suv va havon ifloslanishi aholining noroziligini keltirib chiqarmoqda. Bu borada muayyan bir kompaniyaning ekologiyaga salbiy ta‘siri aniqlansa, bu ma‘lum bir ma‘noda muammo hisoblanadi. Bunday sharoitda kompaniyalarning samarali ekologik siyosat yuritishi juda muhim.

Adabiyotlar sharhi

“EIB” (ESG) ilk bor 2000-yillardan boshlab qo‘llana boshlandi. Biroq, ushbu standartlardan oldin tarqoq holda foydalanib kelingan. Rasmiy ravishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti chiqarilgan hisobotda ESG atamasini rasmiy ravishda ishlatgan. Muvaffaqiyatli investitsiyalar fuqarolik jamiyati va ekologik barqaror iqtisodiyotga bog‘liq. Shuningdek uzoq muddatli istiqbolda investitsiya bozorlari aniq shaxsiy manfaatlarga asoslanfanidan ko‘ra atrof-muhit va ijtimoiy ta‘sirlarni yaxshiroq boshqarishga investitsiyalar kiritish jahon hamjamiyatning barqaror rivojlanishining asosi hisoblanadi. Investitsiyalarni ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) omillarini asosida kiritish pirovard natijaga hamda barqarorlikka ijobiy hissa qo‘shadi

EIB (ESG) - bu ijtimoiy ongli investorlar investitsiyalarni tanlashda foydalanadigan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv standartlarini anglatuvchi qisqartma so‘z hisoblanadi. Ushbu standartlar asosida davlat kompaniyalari va xususiy korxonalar atrof-muhitga, korxonalarda ishlayotgan ishchilarga bo‘lgan munosabatlari qanday darajadiligini hamda boshqaruv va korporativ boshqaruvning yuqori standartlarga javob berishini aniqlashdan iborat.

EIB tamoyillari borasida qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan va ular haqida turli xil fikrlar bildirilgan. Jumladan, H.Smit so‘zlariga ko‘ra, ESG investitsiyalari atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillari kompaniyaning umumiy faoliyatiga ta‘sir qilishini taxmin qiladi. ESG omillarini hisobga olgan holda, investorlar o‘zlari qo‘llab-quvvatlagan kompaniyalar haqida yanada yaxlit tasavvurga ega bo‘lishadi, bu esa xavfni kamaytirish va imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi [14].

ESG haqida Linda Chjan, SoFi katta maslahatchisi va Purview Investments bosh direktori “Hozirgi kunda mijozlarning asosiy qismi ekologik va ijtimoiy muammolardan juda xavotirda, masalan, iqlim o‘zgarishi jiddiy iqlim inqirozlariga olib keladi, gender va irqiy tengsizlik, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylikka ham olib kelishi mumkin” Ular ushbu muammolarni kuchaytiradigan yoki ularga hissa qo‘shadigan firmalarga sarmoya kiritmaslikka afzal ko‘rmoqdalar. Shuningdek, ESGning joriy qilgan kompaniyalarga sarmoya kiritishni afzal ko‘rishadi.

O‘zbekistonda EIB (ESG) tamoyillari keng ommalashmagan, biroq, butunlay notanish mavzu deb ham bo‘lmaydi. Ayni paytda mamlakatda ESG tamoyillarini kompaniya va boshqaruv organlariga tatbiq etish borasida amaliy qadamlar tashlangan. Xususan, O‘zbekiston Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi farmonida EIB (ESG) tamoyillariga kelajakda xalqaro savdo va moliya bozorlariga chiqishda ko‘mak beruvchi omil sifatida qaralgan. Shu maqsadda tegishli vazirlik va idoralarga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv EIB (ESG) hisobdorlik tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini o‘zlashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish topshirilgan. Shu bilan birga, «O‘zbekneftgaz» kompaniyasi ham o‘z faoliyatida EIB (ESG) tamoyillarini joriy etish bo‘yicha ishlarni olib bormoqda. Xususan, aksionerlik jamiyati IPO qilish xalqaro kredit reytingini mustahkamlash maqsadida uzoq va o‘rta muddatli strategiya ishlab chiqish va xalqaro reyting agentliklaridan Barqaror rivojlanish reytingini EIB (ESG) olishni rejalashtirmoqda. Buning uchun kompaniya tarkibida ESG standartlarini joriy etish bo‘yicha mas’ul mustaqil bo‘linma ham tuzilgan. “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ham faoliyatiga EIB (ESG) tamoyillarini joriy etishga qiziqish bildirmoqda. Bu borada tashkilot BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Tashabbusning maqsadlari ekologik, ijtimoiy va biznes etikasini boshqarish tizimlarini rivojlantirish, ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish, shu jumladan eng yaxshi xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlashni takomillashtirish imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda moliyaviy bozorlar 2008-yilgi moliyaviy inqiroz, iqlim o‘zgarishining tezlashishi va COVID-19 pandemiyasida ko‘plab qiyinchiliklarga duch keldi. Bunday muammolarni oldini olish maqsadida yangi ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) modeli deb ataladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yangi modelini joriy etish anchagina jadallashdi. Bu, ayniqsa, moliyaviy investitsiyalar sohasida yaqqol namoyon bo‘ldi. Mas’uliyatli investitsiyalarning aniq ta’rifi yo‘qligi, mavjud ma’lumotlar va ESG reytinglarining sifati yetarli emasligi sababli ESG fondlarining nisbiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish noaniqligicha qolmoqda. Biroq, ko‘pgina tadqiqotlar ESG omillari va kompaniyaning moliyaviy

ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy bog'liqlikni ko'rsatmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bu ijobiy natijalar uzoq muddatda ko'proq namoyon bo'ladi va ushbu kompaniyalarning aksiyalari narxiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. ESG jamg'armalari inqiroz paytida an'anaviy fondlarga nisbatan vujudga keladigan risklardan himoya qilinganligini ko'rsatdi.

EIB (ESG) investitsiyalari uchun kompaniyalarni baholashda foydalaniladigan uchta mezonni batafsil ko'rib chiqish zarur hisoblanadi.

Jahon banki yangi ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) ma'lumotlariga asoslangan portalini ishga tushirgan bo'lib. Ushbu portalning beta-versiyasi 2019-yilda ishga tushirilgandan beri u moliya sektori uchun foydalanish bo'lgan asosiy manbaga aylandi. U aktivlar menejerlari, investitsiya banklari, reyting agentliklari va boshqa ESG ma'lumotlar provayderlari tomonidan suveren ESG investitsiyalarini xabardor qilish uchun foydalaniladi.

1-jadval

EIB (ESG) standartlari [9]

Atrof-muhitga ta'sir (Environmental)	Ijtimoiy (Social)	Boshqaruv (Governance)
Iqlim o'zgarishi	Mehmat faoliyati olib borish standartlari	Boshqaruvning e dan sgacha bo'lgan kategoriyalari
Issiqxoan effektini keltirib chiqaruvchi gazlarning kelib chiqishi	Odam savdosi va bolalarni ishlatish	Siyosiy lobbist
Tabiiy resurslarni isrof qilinishi	Oylik va imtiyozlar	Korporativ muhit
Ifloslanishni kamaytirish	Mahalliy aholiga ta'siri	Boshqaruvchilarni ish haqisi
Energiya samaradorligi	Sog'lik va xavfsizlik	Karrupsiya va pora olish
Chiqindilarni qayta ishlanishi	Irqiy tenglik	Xayriya
Suv tanqisligi	Inson huquqlari	Strategik barqarorlik
Is gazlarini chiqarish darajasi	Ijtimoiy tenglik	Barqarorlik rivojlanish
Zararli mahsulotlar	Inson kapitali	Uzoq muddatli rejalashtirish
Biologik xilma-xillik	Shaxsiy himoya	-
Daraxtlarning kesilishi	Ish joyi va qulaylik	-

Ushbu tajriba bilan ma'lumotlar portali jamoasi foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini o'z ichiga olishi va muhim ma'lumotlar bo'shliqlarini to'ldirish, tizimga yangi ko'rsatkichlarni qo'shish va foydalanuvchilarga Jahon bankining suveren ESG ma'lumotlarining to'liq salohiyatidan yaxshiroq foydalanishga yordam berish orqali oldingi yutuqlarni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

ESG muhimligini ko'rsatadigan o'sib borayotgan tadqiqotlar bilan investorlar o'zlarining investitsiyalari bilan bog'liq ESG risklari va imkoniyatlarini boshqarishlari va baholashlari kerak. Jahon banki guruhi moliya bozorlarini takomillashtirilgan suveren ESG ma'lumotlari va tahliliy ma'lumotlar bilan

ta'minlash uchun investorlar hamda boshqa bozor ishtirokchilari bilan hamkorlik qiladi, bu esa mamlakatlarning barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha shaffoflikni oshiradi. Sifatliroq ESG ma'lumotlari bilan moliyaviy oqimlar barqaror rivojlanish maqsadlari bilan yaxshiroq muvofiqlashtirilgan yanada barqaror faoliyatga yo'naltirilishi mumkin.

Jahon banki tamonidan ishga tushirilgan portal hozirgi kunda 60 yillik ma'lumotlar hamda 40 ta qo'shimcha ko'rsatkichla ega bo'lgan suveren ESG ma'lumotlar bazasini tashkil etuvchi 71 ta ESG ko'rsatkichlariga ega hisoblanadi. Jahon banki barqaror rivojlanishga investitsiyalar yoki siyosatlarining hissasini baholashda moliyaviy vakillar uchun muhim deb hisoblaydigan uchta ustun - ekologik, ijtimoiy va boshqaruv bo'yicha barcha 17 Barqaror rivojlanish maqsadlariga tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Joriy ko'rsatkichlar to'plami bozor ishtirokchilari bilan o'tkazilgan so'rovlar, Jahon bankining o'z siyosat tahlillari va ekspert guruhlari hamda ma'lumotlarning mavjudligi, qamrovi va dolzarbligi asosida tashkil etilgan.

Yangilangan portal suv ta'siri, qirg'oqlarni muhofaza qilish, o'rmonlarning yo'qolishi, issiq va sovuq darajalari kunlari, yog'ingarchilik anomalialari bo'yicha yangi ekologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Boshqaruv ustuni endi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bo'yicha yangi ko'rsatkichni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, portal ESG mulohazalari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni ham taqdim etadi. Misol uchun, portal Yevropa kosmik agentligining sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalangan holda har bir mamlakatning quruqliklari vaqt o'tishi bilan qanday ko'rinishga ega bo'layotganini ko'rsatadi. Shuningdek, u foydalanuvchilarga har bir mamlakatning uzoq muddatli tabiiy, ishlab chiqarilgan va inson kapitali nuqtai nazaridan "balans" ni aks ettiruvchi mamlakatlarning bo'ylik hisobi profilini o'rganish imkonini beradi.

Bankning ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash majburiyatiga muvofiq, yangi portal yuqori sifatli ESG ma'lumotlarini keng foydalanishni davom ettiradi. O'zlarining suveren ESG ma'lumotlarini olish uchun portalning beta-versiyasiga tayangan foydalanuvchilar bundan keyin ham xuddi shunday qilishlari mumkin.

Suveren ESG standartlari yaqin uch yil ichida ancha rivojlandi. Yangi portal jadal rivojlanishga turtki bo'lib, ma'lumotlar bazasini kengaytiradi va ma'lumotlarni o'rganish uchun vositalarni qo'shib berish mumkin bo'ladi. Shunga qaramay, hali ko'p ish qilish kerak. Ma'lumotlardagi bo'shliqlarni yopish, eng so'nggi qiymatlarni to'ldirish va amaliy dasturlarni o'rganish kun tartibidagi ba'zi masalalar hisoblanadi.

EIB (ESG) investitsiyalari uchun kompaniyalarni baholashda foydalaniladigan uchta mezonni batafsil ko'rib chiqish zarur hisoblanadi.

Ekologik muammolar - bu korxonaning atrof-muhitga ta'sirini anglatadi. Uning darajasini aniqlashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularni qismlarga bo'lib ko'rib chiqamiz.

1. Tashish kabi bevosita operatsiyalar natijasida hosil bo'ladigan uglerod chiqindilarini o'z ichiga oladi

2. Bilvosita emissiyalar deb atalib, masalan, boshqa kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan, so'ngra ishlar qilish uchun sotib olingan elektr energiyasi,

3. Korxonalar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita javobgar bo'lgan barcha emissiyalarga soyabon bo'ladigan, masalan, mahsulotni utilizatsiya qilishning atrof-muhitga ta'siri anglatadi.

Misol uchun, kompyuter uskunalari ishlab chiqaruvchi kompaniyaning emissiyasi kompaniyaga qarashli avtomobillardan chiqadigan uglerod chiqindilarini ham o'z ichiga oladi. Ikkinchi qismi firmaning elektr energiyasi bo'lsa, uchinchi qismi firma yetkazib beruvchilarining atrof-muhitga bo'lgan ta'siri hamda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish ta'siri bo'ladi. Atrof-muhit muammolari haqida ma'lumotlar olish nisbatan oson, chunki ular odatda uglerod chiqindilari, energiya iste'moli yoki resurslar iste'moli kabi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi. Mas'uliyat doirasi global qiymat zanjiriga kengaytirilsa, bu yanada qiyinlashadi, chunki ta'minot zanjirlari bir necha o'nlab yetkazib beruvchilar bo'lishi mumkin va ularni to'liq aniqlash qiyin chunki yetkazib beruvchi mas'uliyatini ta'minlash u yoqda tursin qazib olishgacha bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.

Uchunchi qismga e'tibor qaratadigan bo'lsak emissiyalar hali ham ko'p jihatdan kuzatilmaydi va kuzatish qiyin, ammo raqamlashtirish va yangi hisobot tashabbuslari kelajakda ularni yanada aniqroq aniqlashga yordam beradi. Hali ham o'lchov bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjud hisoblanadi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar - ish joyidagi xilma-xillik va inklyuzivlik (D&I) kabi omillar, masalan, boshqaruv xodimlarida gender tengligi yoki ozchilik vakillari, onalik/otalik ta'tillari siyosati kabilarni anglatadi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash qiyin bo'lishi mumkin bu esa tokenizmga yana ko'r-ko'ronalikka olib kelishi mumkin. Kompaniyalarda ishlovchi hodimlarning ayollarning ulushi ortishi mumkin, ammo bu ularning yoki teng huquqli ekanligini anglatmaydi. Masalan, texnologiya sohasiga kirishdagi to'siqlar olib tashlangan bo'lsa ham, jinslar o'rtasidagi uzoq umr ko'rish bo'yicha hali ham sezilarli farqlar mavjud, chunki ayollarning 40 foizi erkaklarning 17 foiziga "menejrlarning xatti-harakati kompaniya imidjiga putur etkazadigan" deb hisoblashadi. Shu kabi kompaniyalarda ularning aksariyati ish sharoitlarining yomonligidan shikoyat qilishmoqda. Muayyan odamlarni demografik sabablarga ko'ra ko'tarish hamda ko'proq odamlar maqbul tezlikda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va resurslarga ega bo'lishini ta'minlash uchun yetakchilik yo'lini yangilash o'rtasida katta farq mavjud. Qizig'i shundaki, ijtimoiy ko'rsatkichlar kompaniyaning xodimlar uchun jozibadorligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, bunda yuqori qiymatga ega bo'lajak xodimlar, agar ish e'lonida kompaniyaning ijtimoiy bayonoti bilan e'lon qilingan bo'lsa, xatto 44% kamroq pul qabul qilishga tayyor hisoblanishadi.

Boshqaruv ko'rsatkichlari- boshqaruv qarorlarining xilma-xilligi, rahbarlarning ish haqi, ayniqsa xodimlarning asosiy maoshi bilan solishtirganda va kirish yoki manfaati uchun zulmkor rejimlar bilan birga ishlashga qat'iy tayyorlik kabi qarorlar bilan hisoblanadi. Uchta qismdan boshqaruvni o'lchash va tahlil qilish eng qiyini bo'lishi mumkin, ammo bu masalaga e'tibor kuchayib bormoqda. Masalan, boshqaruv doirasiga firmalarning harakatlarini kuzatadigan bo'lsak, PAC orqali siyosiy partiyalarga bilvosita xayr-ehsonlarni o'z ichiga olgan Korporativ Siyosiy Harakat (CPA) va "astroturfing" amaliyoti kiradi, bunda PR firmasi tomonidan soxta asosiy tashkilot tashkil etiladi va uni yollagan firma uchun foydali bo'lgan siyosiy kontseptsiyani qo'llab-quvvatlash sodir bo'ladi. Bular salbiy CPA deb hisoblanishi mumkin bo'lgan misollar, ayniqsa texnologiya sanoatida, chunki u o'zini erkin va liberal makon sifatida ko'rsatishga intiladi, chunki u Kaliforniyadagi Silikon vodiysi kabi liberal hududlarda joylashgan bo'lib, texnologik firmalar qo'llab-quvvatlashga duchor bo'lganda. siyosatchilar va qonunlar jamiyatga zid deb hisoblanadi. Biroq, Dawkins korporativ fuqarolik darajasiga korporativ farovonlik kabi davlat investitsiyalari ta'sir qilmasligini aniqladi, bu hukumat imtiyozlariga sarmoya kiritishdan olinadigan haqiqiy foyda deyarli ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatdi (Dawkins 2002).

Hozirgi kunda mamlakatlarning suveren fondlari ham joriy etmoqda. Universal standartlar yoki barchaga mos keladigan yagona standartlar mavjud emas shuningdek suveren fondlar orasida ESG ning S ustuniga yondashuvlar ko'rib chiqildi. Biroq, tadqiqot davomida amaliy yo'l-yo'riq ko'rsatadigan umumiy xususiyatlarni aniqlandi.

O'rganishlar natijasi ikkita respondent investitsiya jarayonlarida ESGni o'zlarida hisobga olmasligini ko'rsatdi. Jami respondentlarning 55% ESG strategiyasini amalga oshirish aniqlandi. ESG strategiyasini joriy etish uchun 23% uning standartlariga qiziqishni boshlagan. So'rov natijalari suveren jamg'armalar o'rtasida paydo bo'lgan farqlarni ko'rsatadi. Hech bir jamg'arma mablag'lari to'liq amalga ESG strategiyasi oshirilganligini ko'rsatmagan. Respondentlarning 58% investitsiya jarayonlarida ESG standartlarini joriy etgan. Biroq, iqtisodiy jamg'armalarining 20 foizi o'zlarining vazifalarini to'liq amalga oshirganliklarini ko'rsatib o'tishgan.

Mavzuni o‘rganishni boshlash 30%	ESG strategiyasiga ega bo‘ling, lekin hali amalga oshirilmagan 30%
Bizning ESG strategiyamiz to‘liq amalga oshirildi 20%	ESG hozircha bizni qiziqitirmaydi 17%
Hozirda amalga oshirmoqdamiz bizning ESG strategiyamiz 50%	Mavzuni o‘rganish boshlangan Hozirda ESG strategiyani amaliyotga joriy etilgan 58%
Iqtisodiy rivojlanish fondlari	Avlodlararo suverent fond

2-rasm. ESGni amaliyotga joriy etish holati (fond turlari bo‘yicha foizda) [15]

E’tibor qaratadigan jihati shundaki, ko‘plab suveren jamg‘armalarning ESGga bo‘lgan qiziqishlari kunsayin ortib bormoqda. Respondentlar uchun eng keng tarqalganlardan biri ESG strategiyasini qabul qilishning sababi "aniq investitsiya qo‘lga kiritish". Taqqoslash uchun, jamg‘arma fondlari uchun "yuqori risklarni boshqarish" ko‘proq kuzatilar edi. Biroq, "xavfga moslashtirilgan daromad va investitsiyalarni yaxshilash jarayonlar" har ikki turdagi fondlar uchun ham muhim turtki hisoblangan.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mamlakatimizga bevosita jalb qilish bilan bog‘liq xorijiy investitsiyalar, xalqaro kreditlar va grantlar xalqaro moliya institutlari, xorijiy milliy hukumat moliya tashkilotlari hamda boshqa xorijiy qaytarilmaydigan yordamlar uchun ESGning ahamiyati. O‘ziga jalb qilish investorlar O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarga potentsial institutsional rivojlanish bilan bog‘liq atrof-muhitning ifloslanishi xavfi mavjud. Umuman olganda korxonalar bundan buyon barqaror rivojlanishida hamda bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida o‘z faoliyatini ESG standartlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, chunki kundan-kunga investorlarning asosn ushbu standartlar mos keladigan loyihalarga investitsiya kiritishni afzal ko‘rishmoqda.

Endi kompaniyalar atrof-muhitga zararli ta’sirni minimallashtirish (E-ekologik), ijtimoiy rivojlanish, mehnat sharoitlari va xodimlarning hayot sifatini yaxshilash (I-ijtimoiy), shuningdek, kompaniya boshqaruvi va biznes shaffofligi (B-boshqaruv) sohasidagi eng ilg‘or tajribalar amaliyotiga intilishlari kerak. EIB mavzularini muhokama qilish va targ‘ib qilish o‘rinli hamda dolzarb bo‘lib,

mamlakatimizga o‘shning ko‘plab xatolaridan qochish va EIB ekotizimi asosiga eng yaxshi xalqaro tajribani joriy etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shuhrat Botirjon o‘g‘li Abdulazizov. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliyaviy strategiyasi va ularning moliyaviy holati tahlili "Science and Education" Scientific Journal ISSN 2181-0842, May 2023 / Volume 4 Issue 5

2. Abdulazizov Shukhratjon Botirjon o‘g‘li. Analysis of corporate financial strategy of joint stock companies And their financial state. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 06, June (2023)

3. U. Yu. Orokov, Sh. B. Abdulazizov, B. R. Amikulov. The practice of financing the education System. "Science and education" Scientific Journal/ISSN2181-0842 July/volume 3 Issue 7

4. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li, Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘, Mavlonov Doston Mavlon o‘g‘li. Бюджет-солиқ сиёсати орқали мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг аҳамияти. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2023/10/1

5. Mukhammadjon Muzaffarov. Projects formed on the basis of public opinion and financing them in Uzbekistan. World of Scientific news in Science, 2023/12/17

6. Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. IQTISODIY O‘SHING TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR VA ULARNING TASNIFI. MASTERS, 2023/12/27

7. <https://haverfordquality.com/team/henry-smith/>

8. <https://www.pionline.com/ESG-guide>

9. <https://www.investopedia.com/terms/e/environmental-social-and-governance-esg-criteria.asp>

10. Jumaniyozov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109-116.

11. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(2), 84-88.

12. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(5), 1.

13. Jumaniyozov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.



14. <https://haverfordquality.com/team/henry-smith/> Head of Investment Strategy at The Haverford Trust Company
15. IFSWF ESG Survey, March-April 2022